



**ILM FAN VA TABIAT MARKAZLARIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI
BOLALARNI ILMIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISH
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK
MUAMMO SIFATIDA**

Saparniyazova Aygul

Nukus davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim fakulteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10721959>

Annotatsiya. Ushbu maqolada ilm-fan hamda tabiat markazlarida maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilari dunyoqarashini shakllantirish metodologiyasiga pedagogik muammo sifatida fikr va ayrim jihatlarlar muhokama etiladi.

Kalit so'zlar: Innovatsion boshqaruv, ta'lim-tarbiya, jarayon, boshqaruv, kompetensiya, kreativ, bilim, malaka, ko'nikma.

Dunyo miqyosida ilm-fan va tabiat markazlarida bolalarni psixofiziologik, intellektual, ijodiy va shaxsiy salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan kreativ texnologiyalarni rivojlantirish, maktabgacha ta'lim muassasalarida shaxsga yo'naltirilgan innovatsion ta'lim muhitini yaratish hamda strategik boshqaruv tamoyillari asosida maktabgacha ta'limning sifat menejmenti mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga qaratilgan ilmiy- amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda maktabgacha ta'limni boshqarishning axborot-metodik tizimini takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlarini diversifikatsiyalash, ta'lim-tarbiya jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interaktiv va muammoli-vaziyatli o'qitish usullarini joriy etish, maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarining kasbiy-innovatsion kompetentligini rivojlantirish va baholashning samarali shakl va metodlarini amaliyotga joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda respublikamizda maktabgacha ta'lim sohasida me'yoriy-huquqiy bazani tubdan takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalar, ilmiy ishlanmalar va texnologiyalarni maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatiga integratsiya qilish, maktabgacha yoshdagi bolalarni erta rivojlantirish sohasidagi ilmiy, innovatsion-pedagogik faoliyatni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan konseptual islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni



tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish" [1] kabi muhim vazifalar belgilangan. Bu borada maktabgacha ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, zamonaviy boshqaruv shakllarini joriy etish, maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarida zamonaviy menejment va pedagogik texnologiyalar bo'yicha bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb yo'nalishlardan hisoblanadi.

TADVIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Pedagogik amaliyotning ko'rsatishicha, MTT tarbiyalanuvchilarida ilmfan va tabiat markazlarida mustaqil va erkin fikrlash ko'nikmalari va boy ma'naviy dunyoqarashning shakllanishi nafaqat maxsus tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarda, balki ular yashayotgan va ta'lim olayotgan muhit, ta'lim muassasasi jamoasi a'zolarining o'zaro munosabatlari va shaxslararo munosabatlar jarayonlarida vujudga kelayotgan ta'limiy muhitda amalga oshadi. Shuningdek, MTT rahbar-xodimlari va tarbiyachilarining shaxsiy sifatleri, xatti-harakati, dunyoqarashi, tajribasi, bilim, ko'nikma va malakalari tarbiyalanuvchilar shaxsining rivojlanishiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi.

V.A.Slastenin va A.I.Mishenkolarning fikricha, pedagoglar va ta'lim oluvchilar pedagogik jarayonning sub'ektlari sifatida mazkur jarayonning asosiy ishtirokchilari hisoblanib, ular ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarga yo'naltirilgan va maxsus tashkil etilgan pedagoglar va ta'lim oluvchilarning o'zaro ta'sir jarayonlarini pedagogik jarayon deb tavsiflashadi [5; 19-b.].

Mazkur fikrlarga asoslanib aytishimiz mumkinki, MTTda tashkil etiladigan mashg'ulotlar, aniqroq aytganda ta'lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari yaxlit pedagogik tizimni tashkil etadi. Tarbiyalanuvchilar shaxsiga turlicha ta'sir ko'rsatuvchi barcha shakllardagi mashg'ulotlar (sayr, ekskursiya, ma'naviy – ma'rifiy tadbirlar, sport musobaqalari, yarmarka va b.) tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari o'zaro aloqador va uzviy bog'liq bo'lib, ular o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi xususiyatlarga ega. Mazkur tashkil etuvchi komponentlarning o'zaro bog'liq va aloqadorligi hamda birligi pedagogik jarayonning yaxlitligini ifodalaydi.

V.A.Slastenin, A.I.Mishenkolar ta'lim, tarbiya, o'zini-o'zi tarbiya, muloqot va rivojlanish jarayonlarini yaxlit pedagogik jarayonning komponentlari sifatida ajratib ko'rsatishadi [5].

S.T.Turg'unovning fikricha [6], pedagogik jarayon sub'ektlarining ichki imkoniyatlarini harakatga keltiruvchi, mustaqil ravishda tushunchalarini



rivojlantirishga ko'maklashuvchi ta'lim-mustaqil ta'lim, tarbiya-o'zini- o'zi tarbiya qilish va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari bir-birini to'ldiruvchi, shuningdek, biri-ikkinchisining, ikkinchisi-uchinchisining ta'minlovchisi sifatida shaxsning rivojlanishi hamda shaxsiy qobiliyatlarini shakllantirish uchun xizmat qiladi [6].

B.R.Djuraeva va H.M.Tojiboevalarning fikricha[7], har qanday muloqot o'zaro ta'sir jarayonida vujudga keladi va bunda shaxsning o'zini- o'zi anglash jarayoni vujudga keladi, muloqot jarayonida ixtiyoriy shaxs o'z ehtiyojini, shaxsiy hayotiy tushunchalarini, faolligini namoyon etadi. Buning uchun inson o'zining qaysi tizimga va qaysi jamiyatga xosligini anglashi zarur [7].

O'zaro ta'sir jarayonida ishtirok etayotgan inson nafaqat o'zini va shaxsiy xususiyatlarini, balki aniq holatni, vaziyatni ham o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi, bunda o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi sub'ektlarning rivojlanishi amalga oshadi, shuningdek, o'zaro ta'sir jarayoni ham rivojlanadi.

A.Bodalevning fikricha, insonlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir inson psixologiyasi va shaxsiy xususiyatlarini rivojlanishining eng asosiy omili bo'lib, mazkur jarayon ishtirokchilarining o'zaro teng harakatlari shaxslararo aloqalarning vujudga kelishining sharti hisoblanadi [8].

Demak, MTTda tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar komponenti sifatida o'zaro ta'sir jarayonlarining ilmiy va amaliy ahamiyati inson shaxsining rivojlanishida ham o'z ifodasini topadi. MTTda tashkil etiladigan pedagogik jarayon komponenti sifatida o'zaro ta'sir jarayonida erishish mumkin bo'lgan quyidagi natijalar tarbiyalanuvchilar shaxsining rivojlanishida o'ziga xos ahamiyatga ega:

- tarbiyalanuvchilar faolligi va tashabbuskorligining rivojlanishi;
- tarbiyalanuvchilar shaxsida yoshga bog'liq bo'lmagan psixologik xususiyatlarning o'zgarishi;
- tarbiyalanuvchilarning ma'naviy va madaniy dunyoqarashlari va tushunchalarining rivojlanishi;
- tarbiyalanuvchilarda o'zini-o'zi anglash va o'zini-o'zi baholash kabi ko'nikmalarning shakllanishi va rivojlanishi;
- yosh pedagog va tarbiyachilarning kasbiy faoliyatga hamda guruhlariga yangi kelgan tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy-ta'limiy muhitga psixologik moslashuvini tezlashuvi.

Yuqorida aytganimizdek, MTTda tarbiyaviy munosabatlar va shaxslararo munosabatlar jarayonida o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lgan o'zaro ta'sir bevosita va bilvosita muloqot jarayonlarida ham vujudga keladi. Shunday ekan, MTTda



tarbiyalanuvchilar shaxsining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan, pedagogik jarayon komponenti hisoblangan o'zaro ta'sir tarbiyaviy munosabatlar jarayonida ham mavjudligi va ularning o'ziga xos xususiyatlarini ham inobatga olish zaruriyatini belgilaydi.

Demak, shaxslararo munosabatlar jarayonida tarbiyalanuvchilar tomonidan amalga oshiriladigan xatti-harakatlarni o'zaro ta'sir natijasida tarbiyalanuvchilar tomonidan o'zlashtirilib borish jarayoni tarbiyaviy jarayon bo'lib, u tarbiyalanuvchilarda shaxsiy xislatlar shakllanishi va rivojlanishi uchun xizmat qiladi.

Tarbiyaviy munosabatlar insonlar o'rtasidagi doimiy munosabat (aloqalar) bo'lib, ular inson shaxsini rivojlantirishga, ya'ni mustaqil ma'lumot, mustaqil ta'lim olish va o'zini-o'zi tarbiyalashni shakllantirishga xizmat qiladi, shuningdek, bu pedagogik jarayon hisoblanadigan insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda turli shakllarda namoyon bo'ladi, ya'ni mazkur jarayonda ishtirok etayotgan ma'lum bir insonning bilimi, muomala va muloqot madaniyati, kiyinishi, gavda harakatlari, qobiliyati, fan-texnika, san'at va tabiatga bo'lgan munosabati hamda qiziqishi ikkinchi bir insonga va boshqa insonlarning faoliyatiga, ya'ni fikrlashi, tasavvuri va dunyoqarashining o'zgarishiga hamda tafakkurining rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi [6].

Maktabgacha tarbiya tizimi bolaning erkin, mustaqil shaxs bo'lishiga o'rgatadi. Shu bilan birga, bunda qobiliyatlar tengligi emas, balki imkoniyatlar tengligi nazarda tutiladi, bu esa ta'lim va tarbiya jarayonida har bir bolaga nisbatan erkinlik va tartib, talabchanlik va e'tiborlilik uchun sharoitlar yaratilishini talab etadi.

Shunday ekan, MTTdagi ta'lim-tarbiya jarayonlarini murakkab, turli shakldagi va ko'p darajali jarayonlar sifatida quyidagi bir qator xususiyatlarni faqat ularga xos xususiyatlar deb hisoblash mumkin: dialektiklik, davriylik, asoslanganlik darajasi, ixtiloflilik, ahamiyatlilik, tavakkalchilik, ta'lim metodlarini tavsiflash qobiliyati, vaziyatlarga aloqadorlilik, tarkibiy tuzilishga egaligi (strukturaviylik), boshqaruvchanlik, ijtimoiy mo'ljallanganlik, tabaqalashtirish qobiliyati, integrativlik.

XULOSA VA MUNOZARA

Mazkur fikrlarga asoslanib xulosa qilish mumkinki, ilm-fan va tabiat markazlarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonning o'ziga xos xususiyatlaridan biri mashg'ulot jarayonida bola shaxsinig rivolanishi o'zini-o'zi tarbiyalash jarayonini vujudga kelishidir. Demak MTTda tashkil etiladigan barcha turdagi mashg'ulotlar jarayonida bevosita vujudga keladigan o'zini-o'zi tarbiya jarayoni



samaradorligini ta'minlashga aloxida e'tibor qaratish zarur bo'lib, mazkur jarayon samaradorligini ta'minlashning asosiy sharti sifatida tarbiyalanuvchilar faolligini ta'minlash va mustaqil fikrlash faoliyatini tashkil etishni taqozo etadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017 yil., 6-son, 70-modda.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda qabul qilingan "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 2707 sonli qarori
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son Qarori.
4. Nazirova G.M. Tizimli yondashuv asosida maktabgacha ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirish // Zamonaviy fanning dolzarb muammolari. – Rossiya, 2014. – 4-son. – B.96-99.
5. Slastenin V.A., Mishchenko A.I. Yaxlit pedagogik jarayon o'qituvchining kasbiy faoliyati ob'ekti sifatida. Moskva, 2017. – 19-b.
6. Turg'unov S.T., Axmadjonova N.M. Maktabgacha talim sharoitida boshkaruv faoliyat algoritmi. // Halq talimi. – Toshkent, 2012. – 1-son. – B. 133-134
7. Dzhuraeva B.R., Tojiboeva X.M., Nazirova G.M. Maktabgacha talim yoshidagi bolalarga talim-tarbiya berishning zamonaviy tendentsiyalari // Toshkent, - O'zPFITI. – 2015. 112 garov.
8. Bodalev A.A. Akmeologiya mavzusida // Psixologik jurnal. – M., 2013. – T.14. – No 5. – B. 73-79.
9. Janabergenova, A. J. (2021). Setting Goals on Smart Techniques and Affecting Student Motivation. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 9333-9336.
10. Janabergenova, A. J. (2018). Organization and Forms of Students' Independent Work on Higher Mathematics at Pedagogical University. *Eastern European Scientific Journal*, (2).
11. Жанабергенова, А. Ж. (2023). Ахборотлашган таълим муҳитида талабаларнинг мустақил иш фаолияти методикасини такомиллаштириш. *Novateur Publications*, 6, 1-142.
12. Jaksilikovna, J. A. (2022). Ta'lim jarayonini bulutli xisoblash texnologiyasi asosida tashkil etishning pedagogik omillari. *Gospodarka i Innovacje.*, 23, 77-82.



13. Prenov, B., & Tarkhanov, N. (2003). Kernel spikes of singular problems.
14. Barakbaevich, P. B., & Turganbaevich, O. E. (2023). Teaching to solve geometric problems using the method of vectors and coordinates. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 689-695.
15. Prenov, B. B., & Tarkhanov, N. N. (1992). Martinelli-Bochner singular integral. Siberian Mathematical Journal, 33(2), 355-359.
16. Prenov, B. B., & Tarkhanov, N. N. (1992). On the singular Martinelli-Bochner integral. Sibirskii Matematicheskii Zhurnal, 33(2), 202-205.
17. Ashurov, R. R., & Murzambetova, M. B. (2023). Inverse Problem for Mixed-type Equation with an Elliptic Operator of Arbitrary Order. Lobachevskii Journal of Mathematics, 44(2), 533-541.